

## KELINGLAR, TIL BAYRAMINI “QARSAK CHALMASDAN NISHONLAYLIK”

**Imomova Ozoda Shuhrat qizi**

[Ozodaimomova20@gmail.com](mailto:Ozodaimomova20@gmail.com)

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Filologiya fakulteti:  
filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili talabasi

### ANOTATSIYA

*“Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa-tilning ofatidir”*

*(Alisher Navoiy).*

**Kalit so‘zlar:** til, o‘zbek tili, rivojlanish, leksemalar, millat, jamiyat, rus tili, taraqqiyot, madaniyatli, sheva, qurol, vosita, chet tili.

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayot.

Til-kishilik jamiyati mahsuli bo‘lib, jamiyatda kishilarning aloqa qilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisasidir. Til ayrim shaxslardagina emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. U insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha madaniy-ma’naviy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan, uni avloddan avlodga me’ros qoldiradigan asosiy vosita va quroldir. Til nafaqat bir shaxsning, balki butun bir millatning kim ekanligini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Bu ko‘zgu qanday ko‘rinishi jamiyatga bog‘liqdir. Chunki jamiyat a’zolari tilni qabul qiladi, qo‘llaydi va undan doimiy ravishda foydalanadi. Shunday ekan, tilga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz darkor. Tilimizni hurmat qilsak, e’zozlasak u shunchalik jarangdor va jozibali bo‘ladi. O‘zbek tilining rivoji va taraqqiyoti uchun ulkan hissa qo‘shgan

olimlar bisyor. Bulardan, Ayyub G‘ulomov, Abdulhamid Nurmonov, Shavkat Rahmatullayev, G‘ozi Olim Yunusov, Hamid Ne‘matov va shu kabi bir nechta olimlarimiz o‘zbek tilining tamal toshini, ustunini qo‘yib berdi.

1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashni boshlashga imkoniyat berildi. O‘zbek millati uchun dunyoga tuynuk ochildi. O‘sha davrdan so‘ng tilimiz boshqa chet so‘zlar hisobiga boyiy boshladi. Shevashunoslik ya‘ni dialektologiya o‘rganila boshladi. Shevaga oid so‘zlardan adabiy so‘zlarga muqobil so‘zlar olindi. O‘zbek tiliga struktur tilshunoslik kirib keldi va asos solindi. O‘zbek tili grammatikasi va izohli lug‘atlar ishlab chiqildi. Chet tillarining eng yaxshi namunalari ko‘rilib, o‘zimizning til ishlab chiqildi. Bu borada shu kabi ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Biroq, o‘zbek tili mukammal til darajasiga hanuzgacha kelgani yo‘q. Kamchiliklardan holi til deb aytoilmaymiz. Mana hozir o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga o‘ttiz uch yil to‘ldi. Xo‘sh mana shu davr mobaynida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasi, uning go‘zalligini dunyoga tanitish uchun qanday ishlarni amalga oshirdik. Ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Barcha hujjatlar, gazetalar, jurnallar o‘zbek tilida chop etila boshladi. 1993-yil 2-sentyabrda “Lotin tiliga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish to‘g‘risida” gi qonun qabul qilingandan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon komunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochildi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, shulardan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma‘no va jozibador ekanligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olim, professor M.Kozlyanina<sup>8</sup> “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb ta‘kidlagan edi. O‘zbek tili jarangdor va ko‘rkam tildir. Biz tilshunoslar faqat uning bu xususiyatlarini to‘liq darajada yoritib berolmayapmiz.

Qachongacha, o‘zimizning sof fe‘limiz borligi bilan maqtanamiz, qachongacha Navoiyning o‘zini, so‘zini aytib gerdayamiz. O‘zimiz ham til uchun nimadir qilmaymizmi? o‘zi shu vaqtgacha ona tilimiz uchun nimalar qildik. Nafaqat filologlar,

---

<sup>8</sup> Rus olimi professor

tilshunoslar balki, barcha soha vakillari, mana shu jamiyat a'zolari va o'zini o'zbekman deb hisoblaydigan barcha insonlar tilimizning ravnaqi va taraqqiyoti uchun harakat qilishlari lozim. So'zdan uning qudratidan to'g'ri foydalanayapmizmi? Til eng kuchli quroldir faqat undan foydalanishni bilgan kishi uchun. Til bir kishi yoki kichik bir jamoa bilan rivojlanib, taraqqiy etib qolmaydi. O'sishi yanada tanilishi uchun hamma birgalikda harakat qilishi lozim. Tilshunoslar –tilni biluvchi, tuzatuvchi, asosiysi uni tushunuvchi so'z ustalaridir. Ammo jamiyat a'zolari ham tilni hurmat qilishi, tilga qaraganda onasini e'zozlaydigandek qadirlashi darkor. O'zbek tilini so'zlayotganda ruscha, inglizcha so'zlarni qo'shib, behurmat qilishlari joiz emas, masalan turk xalqi tiliga shu qadar hurmat bilan qaraydiki, bitta so'zni xato qo'llasa, darrov to'g'irlashga harakat qiladi. Bizlarda esa rus, ingliz tillarida so'zlashish, gapirish go'yoki madaniyat belgisidek bo'lib qolgan. To'g'ri til bilgan el biladi deyishadi xalqimiz, biroq bu so'zlarni qo'shib muloqotda qo'llash tilimizning behurmat bo'lishiga olib kelmoqda. Chetdan kirib kelgan so'zlar hisobiga tilimiz boyiyapti. Til o'z-o'zicha boyib-rivojlana olmaydi. Boshqa tillarga murojaat qiladi. Biroq bunda chet so'z-tilda oldindan mavjud bo'lgan so'zni siqib chiqarmasligi kerak. Bundan tashqari o'zbek tilida qilinmagan ishlar, o'rganilmagan asarlar bisyor. Ko'chalarda, reklama qog'ozlarida, menyularda barcha jabhadagi ayrim hujjatlarda imloviy xatolarning bisyorligi va shu qog'oz yoki hujjatlarning boshqa chet el tilida nomlanishi va shunga o'xshash ko'plab holatlarni ko'rib, bilib turib, qanday qilib bayram tatiydi. Shunday vaziyatda biz qanday qilib, til bayramini xursandchilik va qarsaklar bilan nishonlaymiz. Bayramni tilimiz taraqqiyotning cho'qqisiga chiqqanida kulib, kerak bo'lsa raqs tushib nishonlaylik. Bu bilan tilimiz juda orqada demoqchimasman, shunchaki yanada yaxshi va taniqli bo'lishini istayapman. O'zbek adabiy tili nafaqat turkiy tillar orasida, balki dunyoning boshqa zamonaviy tillari orasida ham o'zining go'zal badiiy, tasviriy ifodalarga, iboralarga, qochirim va kinoyalarga boyligi bilan sayqallanib, serjilo bir holatga kelganligi bilan ajralib turadi. Tan olish kerak, ona tilimizni dunyoning manaman degan AQSH, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Koreya, Hindiston, Pokiston, Xitoy kabi o'ndan ortiq taraqqiy topgan mamlakatlarining oliy o'quv yurtlarida

o'rganmoqdalar. Tilimizning maqtashga arzigulik jihatlari juda ko'p. Ammo bular yetarli emas. Tilimiz yanada rivojlanishi, taraqqiy etishi va boshqa yuzlab mamlakatlar o'rganadigan mukammal tilga aylanishi lozim. O'zbek tilimizning obro'ysizlanishiga chet so'zlarning o'zbek tiliga aralashtirib qo'llanilayotgani sabab bo'lmoqda. To'g'ri chetdan kirib kelgan so'zlar orqali tilimiz boyiydi, ammo shu so'zlarning o'zbek tilida muqobili borku. Ruscha so'zlarning o'rniga bitta bo'lsa ham o'zbek tili qo'llayversak, tilimiz o'sadi va unga nisbatan hurmat kuchayadi. Markazga ya'ni Toshkentga borgan viloyatlik yurtdoshlarimiz o'z shevalari bilan gapirishga uyaladi. Bilasizmi nega? chunki markazdagi insonlarning ko'pchiligi rus tilida yoki Toshkentcha shevada gapiradilar. Ular uchun rus tilini bilgan inson saviyasi va madaniyatli hisoblanadilar. Ular ham o'zbek millatiku, o'z tillarida ham rus tilida gapirganidek g'ururlanib so'zlashganlarida edi tilimiz misli ko'rilmagan holatga kelardi. Ona tilimizning sofligiga putur yetkazayotgan, hozirda ham tilimizning ichiga singib ketgan ruscha so'zlarning ayrimlarini ko'ribchiqsak. Bular rakvena, skameka, vanna, dush, papka, kartinka, ruchka va shu kabi yuzlab-minglab so'zlarni uchratishimiz mumkin.

“Скамека”-so'zining o'zbek tilidagi muqobil variant o'rindi, o'tiradigan joy ma'nosida qo'llaniladi.

“картинка”-so'zi esa rasm so'zi bilan ifodalanadi.

“ручка”-yozuv quroli bu leksemaga alohida to'xtalib o'tsak. Ruchka leksemasi XX asrning boshlarida ayniqsa sobiq sovet tuzimi davrida rus tilidan o'zbek tiliga yangi tushunchani anglatish uchun emas, balki ming yillik yozuv tarixiga ega bo'lgan o'zbek xalqining yozuv qurolini ruscha atash maqsadida qabul qilingan. Shundan so'ng xalqimiz bu yozuv qurolini ruscha deb o'rganib qolgan.

O'tgan asrda o'zbek tiliga rus tilida juda ko'p so'zlar kiritildi. Shu sabab bugun o'zbekcha matnlarda, muloqotda ruscha so'zlarning ortiqcha yoki o'rinsizligi bo'rtib-sezilib turadi. Biroq o'zbekchaga moslashib, uning “birodar” iga aylangan ruscha o'zlashmalar ham bor. Bu kabi so'zlarni Orif Tolib<sup>9</sup> bir nechtasini keltirib o'tadi. Shularning ayrimlariga to'xtalib o'tsak;

<sup>9</sup> “Daryo” kolumnisti Til va adabiyot ta'limi jurnali 2022-yil 5-son

Adyol ruscha одеяло soʻzidan olingan boʻlib, yopingʻich, oʻrangich maʼnosini anglatadi. “Одеяло” ning ildizi ruschada одеть-kiymoq, kiyintirmoq, yormoq feʼliga borib taqaladi. Oʻzbekchada adyol koʻrpa oʻrnida ishlatiladigan, yengil, uncha qalin boʻlmagan yopinchiqni bildiradi;

Jarkop ruscha “жаркое” soʻzidan oʻzbekchada talaffuz oʻzgarishlariga uchragan. Ruschada sirgʻaluvchi undosh bilan aytiladigan soʻz oʻzbekchada joy, joʻn kabi soʻzlardagi qorishiq dj tovushi bilan talaffuz qilinadi. Jarkop goʻsht va kartoshkadan tayyorlangan qovurma ovqatdir. Uning oʻzbekcha qovurdoq degan nomi ham bor;

Mayoq ruscha маяк soʻzidan olingan boʻlib, маяк soʻzi asliyatda маят-silkinmoq, tebranmoq soʻzidan yasalgan. Soʻzma-soʻz olisda tebranib turuvchi degan maʼno beradi. Oʻzbekchada kemalarga yoʻl koʻrsatish uchun dengiz qirgʻogʻi yoki orollarga qurilgan, minora koʻrinishidagi qurilmani anglatadi. Koʻchma maʼnoda oʻrnak, mashʼal soʻzlari oʻrnida ham ishlatiladi;

Patnis tez-tez foydalaniladigan uy-roʻzgʻor buyumlaridan biri. U ruscha поднос soʻzidan olingan boʻlib, Podnos подносить-olib kelmoq feʼlidan yasalgan. Oʻzbek tilida uch xil maʼnoda qoʻllanadi: narsa tashish yoki non, qand-qurs, meva-cheva kabilarni solib, dasturxonga qoʻyish uchun moʻljallangan idish; turli noz-neʼmatlar bilan tuzalgan idish; duxovkaning narsa terib qoʻyiladigan yassi tunukasi;

Choʻt ruscha счёти soʻzidan olingan boʻlib, aslida счёт-hisob, sanamoq otidan, u esa считать-sanamoq, hisoblamoq feʼlidan yasalgan. Hisob-kitob moslamasini bildiradigan ushbu soʻz oʻzbekchaga tovush oʻzgarishlari bilan oʻtgan. Hozir bunday moslamalardan deyarli foydalanilmaydi. Uni koʻproq sanashni yoki qoʻshish-ayirishni oʻrganayotgan bolalar ishlatadi. Oʻzbek tiliga yaxshi oʻrnashib ketganidan bu soʻz ishtirokida choʻt qoqmoq, choʻtga solmoq, choʻt bermaydi, choʻt emas kabi iboralar ham paydo boʻlgan.

Piyon va piyonista. Piyon ruscha пьяний soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbekchada ham asliyatga mos maʼnoda qoʻllanadi: ichkilikdan kayfi oshgan, mast. Piyonista esa пьяница soʻzidan, u ham asliyatdagi kabi ichkilikboz degan maʼnoda ishlatiladi. Har ikki soʻz talaffuzda oʻzgarishlarga uchrab, oʻzbekchaga moslashgan;

Pirog ruschada ham xuddi shu shaklga ega. U пир-ziyofat, bazm soʻzidan yasalgan, soʻzma-soʻz ziyofat noni degan maʼnoni anglatadi. Oʻzbekchada qiyma, meva, qiyom va shu kabilar solib, pishiriladigan yegulikni bildiradi;

Koʻrib oʻtaylik desak shu va shu kabi soʻzlar minglab topiladi.

Kelinglar, turk millati singari oʻz tilimizni sevaylik, bir gapni emas, balki har bitta soʻzni qadriga yetaylik. Chet soʻzlarni ishlatishni gʻurur deb bilmay, oʻz tilimizda gapirishdan, soʻzlashishdan faxirlanaylik. Tilimiz rivojlanishdan toʻxtagani yoʻq, kun sayin jadallashib bormoqda. Shu kecha-kunduzda ham “oʻzbek tilining milliy korpusi”ustida ishlar amalga oshirilmoqda, Xorazmda shevaga oid soʻzlar bazasi yaratilib, shevalar yigʻilmoqda va oʻrganilmoqda. Tildan toʻgʻri va oʻrinli foydalanish lozim. Toʻgʻri foydalanilsa, undan kuchli qurol yoʻq, ammo toʻgʻri qoʻllashni bilmasa u haqiqiy ofatdir degan fikirni A.Navoiy taʼkidlab oʻtgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki,tilimizga doimo hurmat bilan qarashimiz,uni aziz yurtimiz kabi eʼzozlashimiz shart va zarur.Buning uchun hammamiz birgalikda harakat qilsak, oʻzligimiz boʻlmish ona tilimizning sofligiga putur yetkazmasak, tilimizni koʻplab rivojlangan davlatlar oʻrgana boshlasa,boshqa rivojlangan chet tillari bilan bellasha olish qobiliyatiga ega boʻlsa, ana oʻshandagina bayram qilsak,qarsak chalsak arziydi. Shu millat vakillari tilimiz uchun har kuni nimadir qilaylik,birlashaylik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. *Tilshunoslik nazariyasi. Usmon Sanaqulov, Abdurayim Turobov. Samarqand-2019-yil 5-27-betlar*
2. *Til va adabiyot taʼlimi jurnali. 2022-yil 5-son 3-bet*
3. *Oʻzbek tilining izohli lugʻati.*
4. *Ziyo.uz.com kutubxonasi maʼlumotlari*
5. *Elektron kutubxona maʼlumotlari*
6. *UMKA maʼlumotlari*
7. *Google maʼlumotlari.*